

## HUDUDIY IQTISODIY BOSHQARUVNING INNOVATSION-TRANSFORMATSION MODELINI BIZNES EKOTIZIMIGA MOSLASHTIRISH MEXANIZMLARI

**Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich**

Namangan davlat texnika universiteti  
“Biznesni boshqarish” fakulteti dekani  
i.f.d., professor

E-mail: [bahriddinmahmudov17@gmail.com](mailto:bahriddinmahmudov17@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalashning institutsional mexanizmlari Namangan viloyati misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy boshqaruv samaradorligi, innovatsion infratuzilma, biznes muhit va raqamli transformatsiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Hududlar iqtisodiyotida institutsional modernizatsiya, smart boshqaruv va innovatsion klasterlashuvning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri baholangan. Tadqiqot natijasida hududiy biznes ekotizimini rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish va innovatsion boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** hududiy iqtisodiyot, innovatsion-transformatsion model, biznes ekotizimi, institutsional mexanizmlar, smart boshqaruv, raqamli transformatsiya, hududiy rivojlanish, innovatsion infratuzilma, investitsion faollik, iqtisodiy modernizatsiya.

### **Аннотация**

В данной статье исследуются институциональные механизмы адаптации инновационно-трансформационной модели регионального экономического управления к бизнес-экосистеме на примере Наманганской области. Проанализирована взаимосвязь между эффективностью регионального управления, инновационной инфраструктурой, бизнес-средой и процессами цифровой трансформации. Оценено влияние институциональной модернизации, smart-управления и инновационной кластеризации на экономическую эффективность регионов. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по развитию региональной бизнес-экосистемы, повышению инвестиционной активности и совершенствованию инновационного управления.

**Ключевые слова:** региональная экономика, инновационно-трансформационная модель, бизнес-экосистема, институциональные механизмы, smart-управление, цифровая трансформация, региональное развитие, инновационная инфраструктура, инвестиционная активность, экономическая модернизация.

### **Abstract**

The article examines the institutional mechanisms for adapting the innovative-transformational model of regional economic governance to the business ecosystem based on the case of Namangan region. The study analyzes the interrelationship

between regional governance efficiency, innovation infrastructure, business environment, and digital transformation processes. The impact of institutional modernization, smart governance, and innovative clustering on regional economic efficiency is evaluated. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed to enhance the regional business ecosystem, increase investment activity, and improve innovative governance mechanisms.

**Keywords:** regional economy, innovative-transformational model, business ecosystem, institutional mechanisms, smart governance, digital transformation, regional development, innovation infrastructure, investment activity, economic modernization.

## KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli transformatsiyaning chuqurlashuvi hamda hududlararo raqobatning kuchayishi sharoitida hududiy iqtisodiy boshqaruvning an'anaviy ma'muriy modeli biznes ekotizimining dinamik va tez o'zgaruvchan talablariga to'liq moslashish imkoniyatini yo'qotib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhit hududiy boshqaruv tizimidan nafaqat ma'muriy tartibga solish, balki innovatsion yondashuvlar, raqamli boshqaruv mexanizmlari va yuqori operatsion samaradorlikni ham talab qilmoqda. Jahon bankining Business Ready 2024 hisobotida biznes muhitini baholash mezonlari sifatida faqat normativ-huquqiy tartibga solish emas, balki davlat xizmatlari sifati, institutsional samaradorlik hamda operatsion boshqaruv darajasi ham asosiy indikatorlar qatoriga kiritilgan. Mazkur yondashuv hududiy iqtisodiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion-transformatsion boshqaruv modeliga o'tish zaruratini yanada kuchaytirgan. [1].

OECD tadqiqotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari raqamli platformalar, ochiq innovatsiyalar va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv orqali yuqori raqobatbardoshlikka erishmoqda. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyati biznes ekotizimini rivojlantirishda faqat investitsiya hajmini oshirish yetarli emas; balki tadbirkorlik, innovatsiya, infratuzilma va mahalliy boshqaruv o'rtasida institutsional muvofiqlikni kuchaytirish talab etiladi [2].

BMT Taraqqiyot dasturi raqamli transformatsiyani hukumat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan jarayon sifatida baholaydi. Demak, hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion modeli faqat texnologik yangilanish emas, balki qaror qabul qilish, xizmat ko'rsatish, ma'lumotlardan foydalanish va biznes bilan hamkorlik qilish madaniyatini tubdan o'zgartirish jarayonidir [3].

O'zbekiston sharoitida mazkur masalaning dolzarbligi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi bilan bevosita bog'liq. Strategiyada hududlar salohiyatini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamli xizmatlarni kengaytirish va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [4]. Bu esa Namangan viloyati misolida biznes ekotizimiga moslashuvchan, natijador va raqamli boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farmonida tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish,

investitsiyalarni jalb qilish va biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari alohida qayd etilgan[5]. Bu hujjat hududlarda biznes jarayonlarini soddalashtirish, davlat-xususiy sektor muloqotini kuchaytirish va institutsional to‘siqlarni kamaytirish uchun normativ asos bo‘lib xizmat qiladi.

Namangan viloyati iqtisodiy rivojlanishida sanoat, xizmatlar, kichik biznes, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi va eksport salohiyati muhim o‘rin tutadi. Biroq hududiy biznes ekotizimining barqaror rivojlanishi uchun mavjud iqtisodiy resurslarni innovatsion boshqaruv mexanizmlari bilan bog‘lash zarur. Aks holda, biznes subyektlari faolligi alohida-alohida rivojlanadi, lekin ular yagona hududiy iqtisodiy tizimga aylana olmaydi.

Shu jihatdan, mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligi hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini Namangan viloyati biznes ekotizimiga adaptatsiyalashning institutsional mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda asosiy e‘tibor biznes jarayonlari samaradorligi, davlat boshqaruvi sifati, raqamli transformatsiya, innovatsion infratuzilma va hududiy raqobatbardoshlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlashga qaratiladi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalash masalasi zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida institutsional iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, raqamli boshqaruv va hududiy raqobatbardoshlik konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarning metodologik asoslari avvalo institutsional iqtisodiyot nazariyasi bilan bog‘liqdir. D. North iqtisodiy rivojlanishda institutlarning roli hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlab, iqtisodiy samaradorlik resurslar hajmiga emas, balki institutsional muhit sifatiga bog‘liq ekanini asoslab bergan [6]. Muallifning fikricha, samarali iqtisodiy tizimning shakllanishi formal va noformal institutlarning uyg‘unlashuv darajasi bilan belgilanadi. Bu yondashuv hududiy boshqaruvning innovatsion modelini shakllantirishda institutsional mexanizmlarning ustuvorligini ko‘rsatadi.

R. Kouz esa tranzaksiya xarajatlari nazariyasi orqali iqtisodiy boshqaruvda samaradorlikni oshirish institutsional tuzilmalarning moslashuvchanligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi [7]. Muallif biznes jarayonlarida ortiqcha byurokratik to‘siqlar va yuqori tranzaksiya xarajatlari iqtisodiy faollikni sekinlashtirishini asoslaydi. Mazkur nazariya hududiy biznes ekotizimini rivojlantirishda davlat boshqaruvi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi institutsional integratsiya muhim ekanini anglatadi.

M. Porter hududiy raqobatbardoshlik nazariyasida iqtisodiy o‘shishning asosiy manbai innovatsion klasterlar ekanini ta’kidlaydi [8]. Unga ko‘ra, hududlarda korxonalar, infratuzilma, ilmiy markazlar va boshqaruv institutlari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Porterning “raqobat ustunligi” konsepsiyasi Namangan viloyatida sanoat, xizmat ko‘rsatish va kichik biznesni yagona biznes ekotizimi sifatida rivojlantirishning ilmiy asoslarini shakllantiradi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasining klassik asoslari J. Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, muallif iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida innovatsion

tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatadi [9]. Shumpeter "ijodiy vayronkorlik" konsepsiyasi orqali iqtisodiy tizimlarda eski boshqaruv shakllari yangi innovatsion mexanizmlar bilan almashinishi zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv hududiy boshqaruvning an'anaviy ma'muriy modelidan innovatsion-transformatsion modelga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

P. Romerning endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida bilim, innovatsiya va texnologik yangiliklar iqtisodiy rivojlanishning ichki omili sifatida talqin qilinadi [10]. Muallifning fikricha, hududiy iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligi innovatsiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish darajasi bilan belgilanadi. Bu esa biznes ekotizimida ilmiy tadqiqotlar, texnologik startaplar va raqamli boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini oshiradi.

M. Kastelsning tarmoq jamiyati nazariyasi zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi [11]. Muallif raqamli transformatsiya iqtisodiy boshqaruvni markazlashgan tizimdan tarmoqli va moslashuvchan modelga o'tkazishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv hududiy iqtisodiy boshqaruvda smart governance va data-driven management tizimlarini joriy etishning nazariy asosini yaratadi.

Rossiyalik iqtisodchi A.G. Granberg hududiy iqtisodiyot nazariyasida hududlarni iqtisodiy tizim sifatida baholab, ularning rivojlanishi ishlab chiqarish, infratuzilma va boshqaruv omillarining o'zaro integratsiyasiga bog'liq ekanini asoslaydi [12]. Muallif hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun differensial iqtisodiy siyosat zarurligini ko'rsatadi. Bu Namangan viloyatida tumanlar kesimida alohida innovatsion boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

Mahalliy iqtisodchi Q.X. Abdurahmonov hududiy iqtisodiyotni boshqarishda mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi [13]. Muallifning fikricha, hududiy iqtisodiy siyosat markazlashgan boshqaruvdan ko'ra hududlarning ichki salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Bu yondashuv biznes ekotizimini shakllantirishda hududiy tashabbuslarning rolini kuchaytiradi.

S.S. G'ulomov raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy boshqaruv tizimi tubdan transformatsiyalanayotganini qayd etadi [14]. Muallif raqamli texnologiyalarni joriy etish biznes jarayonlarini optimallashtirish, davlat xizmatlarini tezlashtirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariya Namangan viloyatida biznes ekotizimiga mos innovatsion boshqaruv platformalarini yaratish zaruratini asoslaydi.

B.Y. Xodiyev iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasida hududiy rivojlanishning asosiy omili sifatida institutsional islohotlar va innovatsion infratuzilmani ko'rsatadi [15]. Muallif iqtisodiy modernizatsiya jarayonida hududiy boshqaruv samaradorligi investitsion faollik va tadbirkorlik rivojiga bevosita ta'sir qilishini qayd etadi. Bu yondashuv hududiy iqtisodiy boshqaruvni biznes ekotizimi bilan integratsiyalash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modeli alohida iqtisodiy instrument emas,

balki institutsional boshqaruv, innovatsion infratuzilma, raqamli texnologiyalar, klasterlashuv va biznes ekotizimi integratsiyasiga asoslangan murakkab tizim hisoblanadi. Mavjud ilmiy yondashuvlarning aksariyati hududiy rivojlanishni umumiy iqtisodiy nuqtai nazardan baholagan bo'lsa-da, Namangan viloyati misolida biznes ekotizimiga moslashgan innovatsion boshqaruv mexanizmlarini kompleks tadqiq etish yetarli darajada o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot hududiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimi bilan integratsiyalashning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalash jarayonini baholashda tizimli, institutsional, qiyosiy va kompleks tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologik yondashuv hududiy boshqaruv sifati, innovatsion infratuzilma, biznes muhiti, investitsion faollik va raqamli transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda Namangan viloyati iqtisodiy tizimi alohida hududiy-biznes ekotizim sifatida talqin qilinib, uning tarkibiy elementlari institutsional muhit, tadbirkorlik subyektlari, infratuzilmaviy sharoit va innovatsion boshqaruv mexanizmlari kesimida baholandi.

Tahlil jarayonida induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, trend tahlili, integral baholash hamda ekspert-analitik yondashuvlardan foydalanildi. Integral baholash hududlar bo'yicha rivojlanish darajasini aniqlash, qiyosiy tahlil esa Namangan viloyati tumanlari o'rtasidagi institutsional va innovatsion tafovutlarni ochib berishga xizmat qildi. Ushbu metodologiya hududiy boshqaruv modelining biznes jarayonlariga ta'sirini aniqlash, mavjud muammolarning sabablarini ajratish hamda amaliy takliflarni ilmiy asoslash imkonini berdi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mazkur bo'limda Namangan viloyati va uning barcha tumanlarida hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalash jarayonlari 2016-2025-yillar kesimida kompleks tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida hududlar bo'yicha biznes ekotizimi rivojlanishining integral indeksi, investitsion faollik va biznes jarayonlari integratsiyasi, raqamli-innovatsion boshqaruv adaptatsiyasi hamda innovatsion-transformatsion modelning biznes ekotizimiga moslashuv darajasini ifodalovchi kompleks indekslar shakllantirildi. Ushbu maqsadda 4 ta murakkab jadval ishlab chiqilib, ular hududlar kesimida iqtisodiy boshqaruv samaradorligi, innovatsion faollik, investitsion integratsiya va biznes muhitining transformatsion xususiyatlarini o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida Namangan viloyati statistika boshqarmasining investitsiya, sanoat, kichik biznes, xizmatlar va hududiy rivojlanishga oid rasmiy statistik ma'lumotlari metodik asos sifatida foydalanildi. Jadvallarda keltirilgan ko'rsatkichlar integral indekslash, normalashtirish, qiyosiy tahlil va trend-ekstrapolyatsiya usullari asosida shakllantirildi. 2025-yil ko'rsatkichlari hududiy iqtisodiy rivojlanish

dinamikasi, investitsion faollik hamda innovatsion boshqaruv tendensiyalaridan kelib chiqib prognozlashtirildi. Mazkur yondashuv hududiy biznes ekotizimining transformatsion rivojlanish jarayonlarini tizimli va kompleks baholash imkonini yaratadi.

### 1-jadval

#### Namangan viloyati hududlarida biznes ekotizimi rivojlanishining integral indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0,312	0,327	0,341	0,358	0,376	0,389	0,405	0,421	0,447	0,462
Namangan	0,121	0,128	0,135	0,143	0,151	0,156	0,162	0,168	0,174	0,181
Mingbuloq	0,072	0,076	0,081	0,087	0,091	0,096	0,101	0,106	0,112	0,118
Kosonsoy	0,108	0,115	0,123	0,132	0,141	0,149	0,157	0,166	0,178	0,187
Norin	0,069	0,073	0,078	0,083	0,088	0,093	0,098	0,103	0,109	0,115
Pop	0,116	0,124	0,132	0,141	0,153	0,161	0,169	0,177	0,190	0,202
To‘rao‘rg‘on	0,143	0,154	0,166	0,179	0,194	0,211	0,229	0,248	0,268	0,287
Uychi	0,126	0,134	0,143	0,153	0,162	0,171	0,181	0,190	0,201	0,211
Uchqo‘rg‘on	0,112	0,118	0,125	0,132	0,138	0,143	0,147	0,150	0,153	0,158
Chortoq	0,097	0,104	0,111	0,119	0,127	0,135	0,144	0,153	0,164	0,174
Chust	0,137	0,148	0,160	0,173	0,187	0,201	0,217	0,233	0,251	0,267
Yangiqo‘rg‘on	0,119	0,127	0,136	0,146	0,157	0,167	0,178	0,190	0,204	0,217

1-jadval natijalari Namangan viloyatida biznes ekotizimi rivojlanishining hududiy asimmetriya, markazlashuv va differensial o‘shish tamoyillari asosida shakllanayotganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillarda Namangan shahrining integral indeksi 0,312 dan 0,462 gacha oshib, 48,1 foizlik o‘shishni namoyon etgan. To‘rao‘rg‘on tumanida bu ko‘rsatkich 0,143 dan 0,287 gacha ko‘tarilib, 100,7 foizlik o‘shishni tashkil qilgan. Chust tumanida indeks 0,137 dan 0,267 gacha, Yangiqo‘rg‘onda 0,119 dan 0,217 gacha, Kosonsoyda 0,108 dan 0,187 gacha oshgan. Aksincha, 2025-yilda Norin (0,115), Mingbuloq (0,118) va Uchqo‘rg‘on (0,158) tumanlarida indekslarning past darajada saqlanib qolishi hududiy biznes ekotizimining institutsional zichligi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Namangan shahri bilan Norin tumani o‘rtasidagi tafovut 0,347 punktni tashkil etib, bu viloyatda biznes faolligi va iqtisodiy imkoniyatlar haddan tashqari notekis taqsimlanganini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar biznes ekotizimining rivojlanishi faqat tadbirkorlik subyektlari soni yoki investitsiya hajmi bilan belgilanmasligini, balki hududiy boshqaruv sifati, infratuzilmaviy tayyorgarlik, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, raqamli platformalar qamrovi va kooperatsion aloqalarning institutsional barqarorligi bilan uzviy bog‘liq ekanini anglatadi. Namangan shahri yuqori konsentratsiyalashgan biznes markazi sifatida viloyat iqtisodiy tizimini tortib turmoqda, ammo bunday model uzoq muddatda periferik tumanlarning innovatsion va tadbirkorlik salohiyatini cheklaydi. To‘rao‘rg‘on, Chust va Yangiqo‘rg‘on tumanlaridagi ijobiy dinamika ikkinchi darajali biznes o‘shish markazlarini shakllantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatsa, Norin, Mingbuloq va Uchqo‘rg‘ondagi past indekslar amaldagi hududiy boshqaruv

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

mexanizmlari ushbu tumanlarda yetarli natija bermayotganini bildiradi. Demak, innovatsion-transformatsion boshqaruv modeli barcha hududlarga bir xil qo‘llanmasligi, balki har bir tumanning biznes zichligi, institutsional salohiyati va innovatsion tayyorgarligidan kelib chiqib differensial tarzda adaptatsiyalanishi zarur.

## 2-jadval

### Namangan viloyati hududlarida investitsion faollik va biznes jarayonlari integratsiyasi indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Namangan shahri	0,286	0,302	0,321	0,344	0,368	0,391	0,417	0,449	0,512	0,534
Namangan	0,109	0,116	0,124	0,133	0,143	0,151	0,158	0,165	0,176	0,185
Mingbuloq	0,064	0,069	0,074	0,080	0,087	0,093	0,099	0,106	0,121	0,129
Kosonsoy	0,091	0,098	0,106	0,115	0,126	0,137	0,148	0,160	0,179	0,192
Norin	0,058	0,064	0,070	0,077	0,084	0,091	0,099	0,108	0,132	0,141
Pop	0,126	0,138	0,152	0,167	0,185	0,204	0,226	0,252	0,317	0,343
To‘raqo‘rg‘on	0,134	0,145	0,158	0,173	0,191	0,213	0,238	0,267	0,306	0,329
Uychi	0,086	0,093	0,101	0,110	0,121	0,132	0,143	0,156	0,181	0,194
Uchqo‘rg‘on	0,079	0,084	0,090	0,097	0,105	0,112	0,120	0,127	0,139	0,148
Chortoq	0,073	0,079	0,086	0,094	0,103	0,113	0,124	0,136	0,156	0,169
Chust	0,118	0,129	0,142	0,157	0,174	0,192	0,212	0,234	0,271	0,293
Yangiqo‘rg‘on	0,101	0,110	0,121	0,133	0,147	0,162	0,178	0,196	0,226	0,244

2-jadval natijalari Namangan viloyatida investitsion faollik va biznes jarayonlari integratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik hududlar kesimida keskin differensiallashganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillar oralig‘ida Namangan shahrining investitsion integratsiya indeksi 0,286 dan 0,534 gacha oshib, 86,7 foizlik o‘sishni namoyon etgan. Pop tumanida indeks 0,126 dan 0,343 gacha, To‘raqo‘rg‘onda 0,134 dan 0,329 gacha, Chust tumanida esa 0,118 dan 0,293 gacha oshgan. Shu bilan birga, Mingbuloq (0,129), Norin (0,141) va Uchqo‘rg‘on (0,148) tumanlarida 2025-yil prognoz ko‘rsatkichlari viloyat o‘rtacha darajasidan ancha past shakllangan. Namangan shahri bilan Mingbuloq tumani o‘rtasidagi tafovut 0,405 punktini tashkil etgani investitsion resurslarning biznes ekotizimiga integratsiyalashuvi hududlar bo‘yicha mutanosib emasligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Pop va To‘raqo‘rg‘on tumanlarida indekslarning keskin o‘sishi ushbu hududlarda investitsiyalarni iqtisodiy faoliyatga transformatsiyalash mexanizmlari nisbatan samarali ishlayotganini bildiradi.

Mazkur tendensiyalar investitsiya hajmi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsional bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni hududga investitsiya jalb qilinishi avtomatik ravishda biznes ekotizimining sifat jihatdan rivojlanishini anglatmaydi. Investitsion oqimlarning iqtisodiy natijaga aylanishi institutsional muhit sifati, boshqaruvning moslashuvchanligi, logistika va infratuzilma imkoniyatlari, raqamli xizmatlar qamrovi hamda tadbirkorlik muhitining barqarorligiga bog‘liqdir. Pop va To‘raqo‘rg‘on tumanlarida investitsion integratsiya indeksining yuqori sur‘atlarda o‘sishi ushbu hududlarda iqtisodiy resurslarning biznes jarayonlariga tezroq moslashayotganini bildiradi. Aksincha, Mingbuloq, Norin va

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Uchqo‘rg‘onda investitsiyalar biznes faoliyatini chuqur transformatsiyalay olmayapti, bu esa institutsional mexanizmlar va hududiy boshqaruv samaradorligi pastligini anglatadi. Shunday ekan, hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelida asosiy e‘tibor investitsiya hajmiga emas, balki investitsiyalarning biznes ekotizimiga integratsiyalashuv darajasi va ularning iqtisodiy multiplikativ samaradorligiga qaratilishi zarur.

### 3-jadval

#### Namangan viloyati hududlarida raqamli-innovatsion boshqaruv adaptatsiyasi indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0,214	0,233	0,255	0,281	0,309	0,342	0,378	0,417	0,456	0,489
Namangan	0,086	0,094	0,103	0,114	0,127	0,141	0,156	0,172	0,190	0,207
Mingbuloq	0,052	0,058	0,065	0,073	0,082	0,092	0,103	0,115	0,129	0,143
Kosonsoy	0,078	0,087	0,097	0,109	0,122	0,137	0,153	0,171	0,191	0,210
Norin	0,049	0,055	0,062	0,070	0,079	0,089	0,100	0,112	0,126	0,139
Pop	0,082	0,091	0,101	0,113	0,127	0,142	0,159	0,177	0,198	0,218
To‘rao‘rg‘on	0,096	0,108	0,122	0,138	0,156	0,178	0,202	0,229	0,257	0,284
Uychi	0,087	0,097	0,109	0,122	0,137	0,154	0,172	0,192	0,214	0,235
Uchqo‘rg‘on	0,074	0,081	0,089	0,098	0,108	0,119	0,131	0,144	0,158	0,172
Chortoq	0,071	0,079	0,088	0,098	0,110	0,123	0,137	0,153	0,170	0,187
Chust	0,094	0,106	0,120	0,136	0,154	0,174	0,196	0,220	0,247	0,272
Yangiqo‘rg‘on	0,081	0,091	0,102	0,115	0,130	0,146	0,164	0,184	0,206	0,228

3-jadval natijalari Namangan viloyatida raqamli-innovatsion boshqaruv adaptatsiyasi hududiy institutsional assimetriya va texnologik qabul qilish salohiyati kesimida sezilarli farqlanayotganini ko‘rsatadi. 2016-2025-yillarda Namangan shahrida raqamli-innovatsion boshqaruv indeksi 0,214 dan 0,489 gacha oshib, 128,5 foizlik o‘shishga erishgan. To‘rao‘rg‘on tumanida ushbu ko‘rsatkich 0,096 dan 0,284 gacha, ya‘ni qariyb 195,8 foizga, Chustda 0,094 dan 0,272 gacha yoki 189,4 foizga, Yangiqo‘rg‘onda esa 0,081 dan 0,228 gacha oshgan. Aksincha, 2025-yil prognoz qiymatlarida Norin (0,139), Mingbuloq (0,143) va Uchqo‘rg‘on (0,172) tumanlari past adaptatsiya zonasida qolmoqda. Namangan shahri bilan Norin tumani o‘rtasidagi 0,350 punktlilik tafovut raqamli boshqaruv imkoniyatlari hududlar bo‘yicha mutanosib shakllanmayotganini, innovatsion boshqaruv resurslari esa asosan markaziy va nisbatan faol tumanlarda jamlanayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur holatning ilmiy talqini shundan iboratki, raqamli-innovatsion boshqaruv oddiy texnologik yangilanish emas, balki institutsional moslashuvchanlik, ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, biznes bilan interaktiv boshqaruv aloqalari va hududiy iqtisodiy jarayonlarni real vaqt rejimida muvofiqlashtirish tizimidir. Namangan shahri, To‘rao‘rg‘on va Chust tumanlarida indekslarning jadal o‘shishi bu hududlarda biznes jarayonlari, investitsion monitoring, elektron xizmatlar va innovatsion infratuzilma o‘rtasida nisbatan barqaror funksional bog‘lanish shakllanayotganini bildiradi. Mingbuloq, Norin va Uchqo‘rg‘ondagi past

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatkichlar esa raqamli vositalar mavjud bo'lsa ham, ularni iqtisodiy qarorlar sifati va biznes samaradorligiga aylantiruvchi institutsional mexanizmlar zaifligini ko'rsatadi. Demak, muammo faqat raqamlashtirish darajasida emas; asosiy muammo - hududiy boshqaruv institutlarining innovatsion modelni qabul qilish, moslashtirish va biznes ekotizimiga singdirish qobiliyati pastligidadir.

#### 4-jadval

### Namangan viloyati hududlarida innovatsion-transformatsion modelning biznes ekotizimiga adaptatsiyalashuv kompleks indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar										Strategik maqom
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025	
Namangan shahri	0,271	0,287	0,306	0,328	0,351	0,374	0,400	0,429	0,472	0,495	Innovatsion markaz
Namangan	0,105	0,113	0,121	0,130	0,140	0,149	0,159	0,168	0,180	0,191	O'rta adaptatsiya
Mingbuloq	0,063	0,068	0,074	0,080	0,087	0,094	0,101	0,109	0,121	0,130	Past adaptatsiya
Kosonsoy	0,092	0,100	0,109	0,120	0,131	0,143	0,155	0,168	0,183	0,196	O'suvchi hudud
Norin	0,057	0,064	0,070	0,077	0,084	0,091	0,099	0,108	0,122	0,132	Past adaptatsiya
Pop	0,108	0,118	0,128	0,140	0,155	0,169	0,185	0,202	0,235	0,254	Investitsion o'sish hududi
To'raqo'rg'on	0,124	0,136	0,149	0,163	0,181	0,202	0,224	0,248	0,277	0,300	Ikkinchi o'sish markazi
Uychi	0,100	0,108	0,118	0,128	0,140	0,153	0,166	0,179	0,199	0,213	O'rta adaptatsiya
Uchqo'rg'on	0,088	0,094	0,101	0,109	0,117	0,125	0,133	0,140	0,150	0,160	Zaif adaptatsiya
Chortoq	0,080	0,087	0,095	0,104	0,113	0,124	0,135	0,147	0,163	0,177	Tiklanish hududi
Chust	0,116	0,128	0,141	0,155	0,172	0,189	0,208	0,229	0,256	0,277	Sanoat-klaster hududi
Yangiqo'rg'on	0,100	0,109	0,120	0,131	0,145	0,159	0,173	0,190	0,212	0,229	Agrar-biznes hududi

4-jadval natijalari Namangan viloyatida innovatsion-transformatsion modelning biznes ekotizimiga adaptatsiyalashuvi ko'p darajali hududiy differensiallashuv asosida shakllanganini ko'rsatadi. 2016-2025-yillar oralig'ida Namangan shahri kompleks indeksi 0,271 dan 0,495 gacha oshib, 82,7 foizlik o'sishga erishgan. To'raqo'rg'on tumanida indeks 0,124 dan 0,300 gacha, ya'ni 141,9 foizga, Chustda 0,116 dan 0,277 gacha yoki 138,8 foizga, Pop tumanida esa 0,108 dan 0,254 gacha oshgan. Shu bilan birga, Mingbuloq (0,130), Norin (0,132) va Uchqo'rg'on (0,160) tumanlarida kompleks adaptatsiya indeksining past darajada qolishi innovatsion-transformatsion boshqaruv modeli ushbu hududlarda to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Namangan shahri bilan Mingbuloq tumani o'rtasidagi tafovut 0,365 punktni tashkil etgani

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

viloyatda innovatsion boshqaruv va biznes integratsiyasi imkoniyatlari markazlashgan xarakter kasb etayotganini anglatadi.

Mazkur natijalar innovatsion-transformatsion modelning hududiy iqtisodiy tizimga integratsiyasi texnologik yoki investitsion omillarning oddiy yig'indisi emasligini, balki institutsional muhit, biznes ekotizimi, raqamli boshqaruv va investitsion resurslarning o'zaro sinxronlashgan tizimi ekanini tasdiqlaydi. Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Chust tumanlarida kompleks indekslarning yuqori shakllanishi ushbu hududlarda iqtisodiy boshqaruvning adaptivligi, biznes bilan institutsional koordinatsiya va innovatsion resurslardan foydalanish samaradorligi nisbatan yuqori ekanini ko'rsatadi. Aksincha, Mingbuloq, Norin va Uchqo'rg'onida biznes ekotizimi, investitsion integratsiya hamda raqamli boshqaruv o'rtasida funksional uzilish mavjud bo'lib, bu holat hududiy iqtisodiy transformatsiyaning sekinlashuviga olib kelmoqda. Eng muhim ilmiy xulosa shuki, innovatsion-transformatsion boshqaruv modeli hududlarga bir xil shaklda joriy etilishi mumkin emas; u har bir hududning institutsional sifati, biznes zichligi, innovatsion tayyorgarligi va iqtisodiy moslashuvchanligidan kelib chiqib differensial tarzda adaptatsiyalanishi zarur.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalari Namangan viloyatida hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalash jarayoni bir tekis kechmayotganini ko'rsatdi. Tahlillar biznes ekotizimi, investitsion integratsiya, raqamli-innovatsion boshqaruv va kompleks adaptatsiya indekslari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, viloyatda iqtisodiy faollikning asosiy qismi Namangan shahri va ayrim faol tumanlarda jamlanib, Mingbuloq, Norin va Uchqo'rg'on kabi hududlarda institutsional moslashuvchanlik pastligicha qolmoqda.

Birinchiidan, biznes ekotizimi rivojlanish indeksi bo'yicha Namangan shahri 2016-yildagi 0,312 ko'rsatkichdan 2025-yilda 0,462 gacha oshib, 48,1 foizlik o'sishni namoyon etdi. To'raqo'rg'on tumanida bu ko'rsatkich 0,143 dan 0,287 gacha ko'tarilib, 100,7 foizlik o'sishga erishdi. Biroq Norin (0,115), Mingbuloq (0,118) va Uchqo'rg'on (0,158) tumanlarida 2025-yil prognoz qiymatlarining pastligi hududlarda biznes infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlar va kooperatsion aloqalar yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu tumanlarda biznes xizmatlari markazlari, mikromoliyalashtirish platformalari va mahalliy kooperatsion tarmoqlarni kuchaytirish zarur.

Ikkinchiidan, investitsion faollik va biznes jarayonlari integratsiyasi bo'yicha Namangan shahri indeksi 0,286 dan 0,534 gacha oshib, 86,7 foizlik o'sishga erishgan bo'lsa, Pop tumanida indeks 0,126 dan 0,343 gacha, To'raqo'rg'onida esa 0,134 dan 0,329 gacha ko'tarildi. Biroq Mingbuloq (0,129), Norin (0,141) va Uchqo'rg'on (0,148) tumanlarida investitsiyalarning biznes jarayonlariga transformatsiyasi sustligicha qolmoqda. Demak, hududiy investitsiya siyosatida asosiy urg'u faqat mablag' jalb qilishga emas, balki investitsiyaning mahalliy biznesga, yangi ish

o‘rinlariga, qo‘shilgan qiymatga va eksport salohiyatiga ta‘sirini baholovchi natijadorlik indikatorlariga qaratilishi kerak.

Uchinchidan, raqamli-innovatsion boshqaruv adaptatsiyasi indeksida Namangan shahri 0,214 dan 0,489 gacha oshib, 128,5 foizlik o‘shishni qayd etdi. To‘raqo‘rg‘onda indeks 0,096 dan 0,284 gacha, Chustda 0,094 dan 0,272 gacha ko‘tarildi. Shu bilan birga, Norin (0,139), Mingbuloq (0,143) va Uchqo‘rg‘on (0,172) tumanlarida raqamli-innovatsion boshqaruv darajasi past bo‘lib qolmoqda. Ilmiy taklif sifatida har bir tuman kesimida “raqamli biznes monitoring paneli”ni joriy etish, unda investitsiya loyihalari, tadbirkorlik subyektlari, infratuzilma muammolari va xizmatlar sifati real vaqt rejimida baholab borilishi lozim.

To‘rtinchidan, kompleks adaptatsiya indeksi Namangan viloyatida innovatsion-transformatsion boshqaruv modeli hali to‘liq hududiy tizimga aylanmaganini ko‘rsatadi. Namangan shahri 0,495, To‘raqo‘rg‘on 0,300, Chust 0,277, Pop 0,254 indeks bilan nisbatan yuqori adaptatsiya zonasida joylashgan bo‘lsa, Mingbuloq 0,130, Norin 0,132 va Uchqo‘rg‘on 0,160 past adaptatsiya hududlari sifatida ajralib turadi. Shu bois tumanlar uchun yagona boshqaruv modeli emas, balki “yuqori adaptatsiyali hududlar”, “o‘suvchi hududlar” va “institutSIONal tiklanishga muhtoj hududlar” kesimida differensial strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari biznes ekotizimining barqaror rivojlanishi uchun institutsional muhit, investitsion resurslar, raqamli boshqaruv va innovatsion infratuzilma o‘zaro sinxron ishlashi kerakligini ko‘rsatdi. Amaliy tavsiya sifatida Namangan viloyatida hududiy biznes ekotizimini boshqarish bo‘yicha yagona raqamli-koordinatsion platforma yaratish, unda hokimliklar, tadbirkorlik subyektlari, banklar, investitsiya agentliklari, eksportchi korxonalar va servis tashkilotlari o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq. Aks holda, investitsiya alohida, biznes alohida, raqamli boshqaruv esa alohida ishlaydi va kutilgan tizimli samara yuzaga kelmaydi.

Oltinchidan, umumiy ilmiy xulosa shundan iboratki, Namangan viloyatida hududiy iqtisodiy boshqaruvning innovatsion-transformatsion modelini biznes ekotizimiga adaptatsiyalash uchun mono-markazlashgan rivojlanishdan ko‘p markazli, raqamli va institutsional jihatdan moslashuvchan modelga o‘tish zarur. To‘raqo‘rg‘on, Chust, Pop va Yangiqo‘rg‘on tumanlarini ikkinchi darajali biznes o‘shish markazlariga aylantirish, Mingbuloq, Norin va Uchqo‘rg‘onda esa institutsional tiklanish dasturlarini amalga oshirish lozim. Eng muhim vazifa - hududiy boshqaruvni oddiy ma‘muriy nazorat tizimidan biznes ekotizimini faol rivojlantiruvchi, innovatsiyani rag‘batlantiruvchi va natijadorlikka asoslangan smart boshqaruv tizimiga transformatsiya qilishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. World Bank. Business Ready 2024. Washington, D.C.: World Bank, 2024.
2. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. United Nations Development Programme. Digital Transformation and Inclusive Governance. UNDP, 2024.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son “Tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7089547>
6. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, Cambridge, 1990. - 152 p.
7. Coase R.H. The Firm, the Market and the Law. University of Chicago Press, Chicago, 1988. - 217 p.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York, 1990. - 896 p.
9. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers Publishing, New York, 1942. - 381 p.
10. Romer P.M. “Endogenous Technological Change”. Journal of Political Economy, Vol. 98, No. 5, University of Chicago Press, 1990. - pp. 71-102.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. Blackwell Publishing, Oxford, 1996. - 625 p.
12. Granberg A.G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. Gosudarstvenniy universitet - Visshaya shkola ekonomiki, Moskva, 2000. - 495 s.
13. Abdurahmonov Q.X. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. - 356 b.
14. G‘ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. - 412 b.
15. Xodiyev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash strategiyasi. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 2018. - 284 b.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**